

XONANDANING OVOZ APPARATI



Suhrob Jumayev

“Ovozni yo‘lga qo‘yish” fani o‘qituvchisi, 1-bosiqch tayanch doktoranti

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI“Maqom xonandaligi” kafedrasi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-11>

Annotatsiya: Maqolada xonandalar uchun o‘ta katta ahamiyatga ega bo‘lgan ovoz apparati va uning tarkibiy qismlari haqida so‘z boradi. Talabalarning ovoz paychalari faoliyati mutaxassis – foniatri boshchiligidagi tekshirildi va tekshiruv natijalari maqolada keltirildi. Ovozni asrash bilan bog‘liq tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Ovoz apparati, diafragma, o‘pka, nafas yo‘li, ovoz paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i, burun, endoskop, fonatsiya, elektroforez.

Аннотация: В статье рассматривается голосовой аппарат и его компоненты, имеющие исключительно важное значение для певцов. Деятельность голосовых связок студентов была исследована под руководством специалиста-фониатра, результаты этого исследования представлены в статье. Даны рекомендации по сохранению голоса.

Ключевые слова: Голосовой аппарат, диафрагма, легкие, дыхательные пути, голосовые связки, ротовая полость, нос, эндоскоп, фонация, электрофорез.


Abstract: This article examines the vocal apparatus and its components, which are of crucial importance for singers. The activity of students' vocal cords was studied under the guidance of a phoniatric specialist, and the results of this study are presented in the article. Recommendations for voice preservation are provided.

Key words: Vocal apparatus, diaphragm, lungs, respiratory tract, vocal cords, oral cavity, nose, endoscope, phonation, electrophoresis.

Xonanda uchun *ovozi apparati* uning asosiy kasbiy “quroli” hisoblanadi. Shunday quroqli, uning yordamida tinglovchining qalbigacha kirib borish mumkin. Uning yordamida shoir va bastakorning ilhomidan yaralgan asarlar san’at shinavandalariga yetkaziladi. “Shu bois ham Sharqning buyuk qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiy: “eng mukammal cholg‘u – inson tomog‘i, eng mukammal musiqa esa inson ovozidir”, deya ta’rif bergen edi”. Shunday ekan, xonanda o‘z ovoz apparatining tuzilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Anatomik jihatdan murakkab tuzilgan bu apparatning ishlatalishi jarayonida ishtirok etadigan insonning tana a’zolari: *Diafragma, o‘pka, nafas yo‘li, ovoz paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i va burun*. Bu qismlarni yanada chuqurroq tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Ushbu maqolada asosan ovoz apparatining ovoz paychalari qismi bilan bog‘liq holatga to‘xtab o‘tiladi.


Talabalar bilan ishslash jarayonida pedagogning ham amaliy bilimlari va tajribasi ortib boradi. Ushbu maqola muallifi ham Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasi “Ovozni yo‘lga qo‘yish” fani o‘qituvchisi hisoblanadi va bugungi kunda o‘g‘il bola talabalar ovoz diapazonining asosan o‘rtal bosqichlarida ovoz mashqlari olib bormoqda. Ammo pedagogik faoliyat mobaynida ba’zi masalalarga duch kelindi. Ish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, ikkita talabaning ovozi bilan ishslash boshqa talabalar bilan ishslashga qaraganda qiyin kechdi. Maxsus ovoz mashqlari bilan ishlanganda ham ijobjiy natijaga erishish qiyin bo‘ldi. Ovoz apparati (ovozi paychalari) shikastlanganligi taxmin qilindi va shu sababli talabani tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishga qaror qilindi. Talabalarning roziligi asosida ovoz bo‘yicha mutaxassis huzuriga borish rejalashtirildi. 2024-yilning 4-dekabr kuni birinchi talaba bilan, 5-dekabr kuni ikkinchi talaba bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining 2-son Markaziy konsultativ-diagnostika poliklinikasiga borildi. Foniatriya bo‘yicha mutaxassis *endoskop* (ikki turdag‘i kuzatuv kamerasi: qattiq va egiluvchan moslamalar)

yordamida tekshiruv o'tkazdi. Ovoz apparatining ichki ko'rinishi (ovozi psychalari) suratga olindi. Birinchi talabaning ovoz psychalari tekshirilganda qizarish alomatlari ko'zga tashlandi. Bu esa ovoz psychalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Nafas olish jarayonida ovoz psychalari orasi kengayadi. Tovush hosil qilish jarayonida esa ovoz psychalari o'zaro yaqinlashadi. Suratda tovush hosil qilish jarayoni (**fonatsiya**) berilgan:



Ammo birinchi talabada ovoz apparatining normal ishlashiga to'sqinlik qilgan asosiy omil burun foliyatidagi muammo bo'lib chiqdi. Ikkita burun nafas yo'llaridagi farq xonandani doimiy bezovta qilib kelgan. Nafas olishdagi qiyinchilik ijrochiga o'z vaqtida erkin nafas olishga va asarni mukammal kuylashiga yo'l qo'ymaydi. Egiluvchan moslamali kuzatuv kamerasi yordamida talabaning burun nafas yo'llari tekshirilganda ushbu xulosaga kelindi. Talabaga mutaxassis tomonidan tegishli tavsiyalar va dori-darmon retsepti berildi. Ko'rsatma va retsept tarkibida **elektroforez** ham bor. Elektroforez – organizmga o'zgarmas tok va shifobaxsh moddalar bilan ta'sir etib davolash usuli.

Ikkinci talabaning ham ovoz apparati tekshirib ko'rildi. Tasvir:



Ushbu tasvirda ma'lum bo'ldiki, ikkinchi talabaning ovoz psychalari sog'lom. Ammo mashg'ulot jarayonida kelib chiqayotgan muammolar talaba bilan o'zgacha uslubda shug'ullanishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagi tasvirlarni kuzatib ovoz apparati shikastlanganligi yoki yo'qligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Ovoz apparatining eng asosiy qismi ovoz psychalaridir. Ularni ko'z qorachig'idek asrash xonandaning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Ovoz bo'g'ilishi insonlar orasida keng uchrab turadigan holat va u xonanda faoliyatiga boshqalarga qaraganda ko'proq ta'sir o'tkazadi. "Ovoz bo'g'ilishi - bu ovoz psychalarining disfunktsiyasida namoyon bo'ladigan patologik holat. Ovoz tembrining o'zgarishi bilan tavsiflenadi, suhbat davomida xirillash paydo bo'ladi, odatiy ovozli talaffuz buziladi". Shu sababli ob-havo sharoitiga qarab kiyinish, o'z tanasini turli kasalliklardan asrash va tartibli bo'lish o'ta muhimdir. Ovozini, umuman o'zini turli kasalliklardan asragan xonanda o'zini hurmat qilgan xonandadir.

Talabalar ovozi asarlar ijrosiga javob berishi uchun jismonan ham tayyor bo'lishi talab etiladi. Ba'zida ularning faqat asar ustida tinmay ishlashlari ham yetarli bo'lmay qolishi mumkin. Bunda

qo'shimcha tarzda talabaga sport bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Imkoniyatga qarab shug'ullaniladigan sport turi ko'proq inson o'pkasining faol ishtirokiga tayanadigan bo'lsa yanada foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ҳамирова М.А. (Нашр учун масъул) Хонандалик санъати жаҳон ва ўзбек миллий анъаналари. – Тошкент: "Санъат" журнали нашриёти, 2009.
2. Bahodirov F. Odam anatomiyasi. – T.: "PLATINUM PUBLISHERS" MCHJ, 2006.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 10. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005.
4. <https://n.ziyouz.com/kutubxona>
5. <https://www.trt.net.tr/uzbek/xalq-tabobati>